

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**MS**  
**2022**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

---

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

#### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

#### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

*To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Ne'matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

**Davron RO‘ZIYEV**

Buxoro davlat universiteti  
musiqa ta’limi kafedrası  
professori v.b.,  
pedagogika fanlari  
nomzodi

**Shavkat QODIROV**

Buxoro davlat  
universitetining Pedagogika  
instituti  
musiqa ta’limi va san’at  
mutaxassisligi  
I bosqich magistri

**Dilovar QODIROVA**

O‘zbekiston  
kompozitorlari va bastakorlari  
uyushmasi a’zosi,  
Buxoro ixtisoslashtirilgan  
san’at maktabi oily toifali  
o‘qituvchisi

**SHARQ ALLOMALARINING INSON MA’NAVIYATIDA MUSIQANING O‘RNI  
HAQIDAGI QARASHLARI**

*Ushbu maqolada Sharq allomalarining inson ma’naviyatida musiqaning o‘rni haqidagi qarashlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, allomalarning musiqiy cholg‘ular tarixi haqida yozib qoldirgan ma’lumotlari, Markaziy Osiyo musiqa ilmi tarkibida cholg‘u ijrochiligi an’anasi, musiqa cholg‘ularining ma’lum belgilar asosida guruhlarga taqsimlanganligi haqiga bayon etgan fikrlar izohlangan.*

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, ma’naviy boyluk, mumtoz musiqa, musiqiy amaliyot, milliy musiqiy an’ana, cholg‘u asboblari, maqom.

*В данной статье представлена информация о взглядах великих ученых Востока на роль музыки в духовности человека. В частности, разъясняются труды ученых по истории музыкальных инструментов, традиции инструментального исполнительства в среднеазиатском музыковедении, разделение музыкальных инструментов на группы по определенным признакам.*

**Ключевые слова:** культура, духовное богатство, классическая музыка, музыкальная практика, национальная музыкальная традиция, музыкальные инструменты, маком.

*This article provides information about the views of the great scientists of the East on the role of music in human spirituality. In particular, the works of scientists on the history of musical instruments, the traditions of instrumental performance in Central Asian musicology, and the division of musical instruments into groups according to certain characteristics are explained.*

**Key words:** culture, spiritual wealth, classical music, musical practice, national musical tradition, musical instruments, makom.

**Kirish.** O‘tmishda estetik musiqiy-qarashlar, goyalar, fikr-mulohazalar, ta’limot va nazariyalar falsafa fani bag‘rida paydo bo‘lgan. Ayni paytda falsafiy ta’limotlardagi xilma-xil yo‘nalishlar musiqiy-estetik qarashlarning ham turli ko‘rinish va yo‘unalishlarga kuchli ta’sir o‘tkazib kegan. Nafosat mohiyati, musiqiy-estetik ong va musiqiy-estetik faoliyat tabiati, san’atning voqelikka munosabati masalalarida turlicha qarashlar paydo bo‘gan. Axloq jamiyat va insonni o‘ziga xos tarzda go‘zallik qonuniyatlari vositasi bilan o‘rganuvchi eng qadimiy va hozirgi zamonda nihoyatda muhim ahamiyatga ega fandır. Shu boisdan musiqa va uning turlari doimo dono va iste’dodli kishilarning bahsiga sazovor bo‘lib, hamisha odamlarning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelgan. “Sharq Arastusi” nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk olim Abu Nasr Forobiy “Axloq - o‘z muvozanatini yo‘qotganning xulqini tartibga keltiradi, mukamallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanati buzilgan xulqning muvozanatini saqlab qoladi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir” - degan edi.

Forobiy insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashida, uni estetik rivojlanishida nazm va musiqa san’atining o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, san’atning barcha turlari bir-biridan farq qiladi: nazm san’ati so‘z bilan, tasviriy san’at esa buyoqlar bilan ish ko‘radi, lekin ular insonga bir xil ta’sir ko‘rsatadi. Forobiyning fikricha, san’at insonda go‘zal estetik fazilatlarini tarbiyalashga qodir kuchga egadir. Shu bois mutafakkir inson oldiga alohida talablar qo‘yadi. U o‘zining asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida to‘xtalib, yoshlarning axloqiy fazilati hamda ularning san’atni, shu jumladan, musiqani egallashi uchun amaliy malakalarini tarbiyalash - tarbiyachilarning muqaddas vazifasi ekanligini ko‘rsatib beradi.

**Asosiy qism.** Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining birligidan tashkil topadi. Ma’naviy meros - o‘tmishning yutug‘i. Uni to‘la va odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodning vazifasidir. Asosiy maqsad boy madaniy merosga ega bo‘lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi, bosqichga ko‘tara bilishdadir.

O‘zbekiston xalqlari ma’naviyati uzoq tarixga ega. Bizning ma’naviy merosimiz nihoyatda boy va mustahkam, unda ming yillik ma’naviy rivojlanishning yutuqlari ifodalaniib qolganidir. Fozil shaxs, komil va

axloqiy yetuk inson haqidagi o'ylar X asrdayoq Abu Nasr Forobiy ijodida muhim o'rinni egallagan va bu g'oyalari o'z davrida ilg'or kishilarni yangi ijtimoiy yutuqlarga ilhomlantirgan.

Markaziy Osiyo musiqiy hayotida juda katta ilmiy-nazariy va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan ta'limot yaratgan Abu Nasr al-Forobiy musiqa ilmini bir-birini to'ldiruvchi ikki qism: "Musiqqa al-nazariyya" va "Musiqqa amaliyya"dan iborat deb hisobladi. Uning fikricha musiqa nazariyotining vazifasi tovushlarning xususiyatlari va holatini qanday tarzda namoyon bo'lishni, ularning soni va sifatini idrok qilish va bilishdan iborat. Musiqiy amaliyotning vazifasi esa, hissiy ta'sirchan ohanglarni vujudga keltirishdan iborat. Ana shunday yoqimli ta'sirchan ohanglar har bir tinglovchi qalbini o'ziga rom etadi, ijobiy sifatlar shakllantiradi. Jumladan, hissiy ta'sirchan ohanglarni tinglovchiga moddiylikda uzatib beruvchi vositalar - inson ovozi va musiqiy sozlar ekanligini alohida ta'kidlab, cholg'udan taraladigan musiqani esa shaxsda axloqiy qiyofa, ijodiy qobiliyatlar, go'zallik haqidagi tasavvurlarning shakllanishida muhim badiiy omil sifatida qatnashishini e'tirof etadi. Forobiy musiqiy sozlarni o'rganishning asoslarini ishlab chiqdi va Markaziy Osiyo musiqa ilmi tarkibida cholg'ushunoslik an'anasini boshlab berdi. Alloma Musiqiy sozlarni o'rganishda tasnif uslubini qo'lladi (klassifikatsiya). Unga asosan, musiqiy sozlar ma'lum belgilar asosida guruhlarga taqsimlanib, ilmiy nuqtayi nazardan keng qamrovda o'rganiladi. Bu uslub mazmunan mufassal xarakterdagi tadqiq uslubi bo'lib, uning negizida musiqiy sozlarni oddiy qurilma sifatida emas, balki ajdodlarimiz musiqiy tafakkuri taraqqiyotining mahsuli tarzida o'rganish maqsadi yotadi.

Abu Ali ibn Sino musiqa haqida o'zining bir qator asarida yozgan. Bu "Kitab-ush-shifo" ("Shifo kitobi"), "Kitabun-najot" ("Najot kitobi"), "Donishnoma" ("Bilim kitobi"), "Risalatun fi-ilmil-musiqiy" ("Musiqiy ilmi haqida risola") kabi asarlari jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi.

Ibn Sino tarificha musiqa san'ati - bu alohida fandır. Bundan san'atning "aql bilan idrok etish", "buyumlarni bilish" kelib chiqadi. Alloma musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta'kidlab o'tgan. Bunda san'at vositasi orqali kishilarning axloqi va estetik didini tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilgan. Buyuk olim ta'kidlashicha, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki narsa - jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma'naviy rivojlanish uchun musiqa va boshqa san'at turlari orqali ta'sir o'tkazish lozim.

Sharqda mavjud bo'lgan an'analarga ko'ra ayrim musiqa asari alohida mohiyat kasb etgan, ayrim hollarda uni "mukammal musiqa" deb atashgan. Cholg'u musiqasi esa tovushni, uning ohangini takrorlovchi sifatida o'z imkoniyati darajasida qo'shiqni boyitadi. U qo'shiqning musiqiy hamrohi, boyituvchi, sarahbori, intermediyasi vazifasini bajaradi.

Alisher Navoiy o'zining she'riy asarlarida musiqa san'atining masalalariga ko'p e'tibor qaratganligi ma'lum. Uning "Majolis un-nafois" asarini o'sha davr musiqiy hayotining qomusi deb atash mumkin. Unda Navoiy o'z zamoni musiqa san'atiga chuqur iz qoldirgan kishilarga qisqa, lekin juda aniq ta'riflar bergan. Bir butun asarni zamonasining mashhur pahlavon va musiqachisi Pahlavon Mahmudga bag'ishlagan.

Navoiyning zamondoshlari uning g'oyalari, iste'dodini yuqori baholaganlar. Shoir va musiqachi Zaynulobiddin Mahmud al-Husayniy unga o'zining "Qonuni ilmi va amali musiqiy" nomli risolasini bag'ishlagan. Yana shu narsa ma'lumki, Navoiyning maslahatlariga ko'ra Abdurahmon Jomiy o'zining "Musiqiy risola"sini yozgan.

Abdurahmon Jomiy o'z zamonasining yirik musiqa nazariyotchisi bo'lgan. Uning "Risolai musiqiy" ("Musiqqa haqida risola") asari o'rta asrlar Sharq musiqiy - pedagogik tafakkurining navbatdagi bosqichini aks ettiradi. Abdurahmon Jomiy "Sho'balal ichida mashhur "nihovand" - ruhiyatga ta'sir etish bo'yicha katta kucha ega. Ayni paytda Rost - idrok va Isfaxon - xushchaqchaliqlik va quvonchni qo'zg'atish uchun yaroqlidir. Ijrochi har bir tovush uchun uning ruhiyatga, ta'siriga javob beradigan, mazmun jihatdan mos bo'lgan she'r tanlab olish zarur. Shundagina bu ta'sir kuchli va amaliy bo'ladi".

Darvish Ali Changiy o'sha davrda mavjud bo'lgan cholg'u ansambllari va ularning ijrochilari haqida, ular Sulton Muhammad saroyida turli xil tantanalarda, qabullarda, dam olish kechalari va yaqin kishilap davralarida doimo ishtirok etganliklari haqida habar beradi. Saroyda nog'oraxona deb atalgan 60 ijrochidan tashkil topgan cholg'uchilar ansambli bo'lgan. Ularni nog'orachi "Maestro" boshqargan. U misol tariqasida shunday dalilni keltiradi: Sulton Husayn saroyida ansambl rahbari - mehtar vazifasini etuk nog'orachi Said Ahmadbin mehtariy - Miroqiy bajargan. Darvish Ali bu sozandaning mahoratini iokcak baholab uni "Tengsiz cholg'uchi, bu dunyoning kata-yu kichik mo'jizalari ko'rki" deb ta'riflagan.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"da e'tirof etishicha Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilari, naychilar, g'ijjakchilik, changchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgani, o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarning nomlari zikr etilganligini ta'kidlaydi.

Sohibqiron Amir Temur hukmronlik qilgan davr madaniyati yirik musiqa nazariyotchilaridan biri - Xo'ja Abdulqodir Marog'iy (1353-1453-yillarda) nomi bilan bog'liq. Bu inson Amir Temur tomonidan Samarqandga taklif etilgan va uzoq yillar davomida Saroy musiqachisi sifatida xizmatda bo'lgan. U to'rtta risola yozgan. "Jome' ul-alhon" ("Ohanglar to'planishi"), "Maqosid ul-alhon" ("Ohanglar maqsadi"),

“Sharqul-advor”. Bu asarlarda XIV-XV asrlar Sharq musiqasining asosiy muammolari bayon etilgan. Uning faoliyati o‘zidan oldin yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlarning tadqiqotlarini davomi bo‘ldi. Shu bilan birga mazkur asarlar muhim ahamiyat kasb etadi, musiqa ilmi va madaniyatini keyingi ravnaqiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Amir Temur hukumronlik qilgan davrdagi musiqiy ansambllar o‘zining milliy tarkibini turli-tumanligi bilan xarakterlanadi. Shu davrning mashhur tarixchisi Xofiz Abru yozadiki “Ajoyib ovoqli hofizlar va mashshohlar o‘zlarining shirin tovushli qushiq va kuylarini forslarning ohang va namunalarini, arabiy ohanglari, turklarning odatlari, xitoyliklarning qonunlari, oltoyliklar o‘lchami bilan ijro etganlar”.

Dunyoning turli mamlakatlaridan keltirilgan sozanda va hofizlar turli musiqiy maktablarning vakillari bo‘lganlar. Lekin markazlashgan yagona davlat doirasida birlashgan va musiqa ilmiyning yangi namunalarini yarata borib bir davrning o‘zida musiqa amaliyoti va nazariyasining yangi maktabi asoschilari bo‘lganlar. Ular o‘z navbatida o‘sha xalqlar milliy madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o‘zida mujassam etib, hamda Movarounnahr va Xuroson badiiy amaliyotini qayta ishlash zaminida o‘rta asrlar Sharq musiqa ilmi rivojini keyingi bosqichini ifoda etgan.

Yirik shoir, maqomshunos alloma Komil Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan “Tanbur chizig‘i” nota yozuvida tovushlar balandligi tanbur sozining 18 pardasiga moslab ishlangan bo‘lib, alloma maxsus belgilar tizimi orqali Xorazm maqomlarini yozib ola boshlagan. Bu ixtiro musiqa ilmining nazariy tamoillari asosida yaratilib, mazkur davrda milliy musiqiy merosimiz durdonalarini saqlab qolishda milliy-ma’rifiy masalaning yechimiga qaratilgan ilk harakat edi.

O‘lkada mustamlaka xarakatining boshlanishi bilan yangi ijtimoiy va mafkuriy, madaniy va musiqiy - estetik unsurlarini maqalliy xalq ongiga singdirish faoliyati avj oldi. Keyinchalik, sho‘rolar davrida shakllangan Musiqiy ta’lim tizimining bosqichlarida esa an’anaviy musiqiy-pedagogik tamyillar asosida ta’lim berish e’tibordan chetda qolib ketdi.

Aynan shu davrda o‘zbek musiqa madaniyati ikki yo‘nalish - xalq an’anaviy ijrochilik san’ati va asosan siyosiy mafkura manfaatlarini ifodalagan akademik ijro san’atiga bo‘lindi. Bu yo‘nalishlarning biri ikkinchisining ustidan bir necha o‘n yillar hukumronlik qilib keldi va milliy musiqa madaniyatining umumiy taraqqiyotiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Ajdodlarimiz merosining unitila boshlanishi esa milliy musiqiy fikrning chegaralanishiga olib keldi.

Milliy musiqiy an’analarini davom ettirish bilan zamonaviy udumlarni millat manfaatlari yo‘lida tadbiq etishga qaratilgan Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqaning boshlang‘ich nazariyasi, milliy musiqiy sozlarda ijrochilik sirlaridan an’anaviy tamoillar asosida ta’lim berdi, an’anaviy ohanglarimizni saqlab qolish uchun kurashdi. Uning fikricha, musiqa san’ati (qo‘shiqchilik va sozandachilik) inson tarbiyasida, uning ruhiy, ahloqiy va estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Millat musiqiy-ma’rifiy rivojini yuksaltirish g‘oyasi jadidchilik xarakatining namoyondalari faoliyatida ham asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Abdurauf Fitrat birinchi o‘zbek olimlari qatorida asrimiz boshlarida musiqa amaliyotimizda qo‘llanilayotgan milliy musiqa sozlarimizni yakka tartibda ilmiy nuqtai nazardan sof etnik atamalarni qo‘llagan holda tahlil qilib berdi va ajdodlarimiz musiqiy merosidan zamonaviy ehtiyojlarda foydalanish g‘oyasini ilgari surdi. A.Fitratning fikricha inson qalbi soz va ohangga muhoj. Uni professional ijrosi esa inson qalbiga malham beradi, uni yaxshi ishlarga, buyuk amallarga undaydi.

**Xulosa.** Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy-axloqiy ta’limotlar taraqqiyoti tarixini o‘rganishda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz asarlari muhim o‘rin egallaydi. Mutafakkirlarning falsafiy qarashlari taraqqiyoti, shuningdek davlat, ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabatlari, axloqiy, estetik, musiqiy qarashlaridagi g‘oyalarning rivojlanganligini ularning asarlaridan bilib olish mumkin. Allomalarning musiqiy, estetik va axloqiy ta’limotlarida inson eng buyuk oliy zot, deb baholanadi. Bu mutafakkirlar hamma narsaning qadr-qimmatini insoniylik bilan belgiladilar va insonparvarlik g‘oyalari axloqiy-estetk tizimda yuqori bosqichga ko‘tarildi.

### Adabiyotlar

1. Ф.Караматов. Узбекская инструментальная музыка. Т., 1972
2. Sharipova G.M., Asamova D.F., Xodjayeveva Z.L. Musiqqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. –Toshkent, 2014.
3. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O‘zbek musiqasi tarixi. -T.: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. Рузиев Д.Ю. Некоторые психологические особенности развития игры на инструменте и подпевания //Академия. - 2020. - № 3 (54).
5. Ro‘ziyev D.Y. Ansabl bilan ishlash uslubi //Darslik. -Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2021.